
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2022 YILNING I-YARIM YILLIGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Joriy yilning 6 oyi davomida shahar hokimligiga barcha manbalar orqali 448 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, mazkur murojaatlar 2021 yilning shu davriga (790 ta) nisbatan *43,3 foizga* kamaygan.

Shundan, joriy yilning **30 iyun** kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **240 ta** (222) hamda Halq qabulxonasi elektron tizimi orqali 94 ta (*170*), shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **114 ta** (398) yozma murojaatlar kelib tushgan.

Mazkur murojaatlarning **218 tasi** (48,7%) ijobiy hal etilgan, **230ta** (51,3%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan. Buning natijasida shahar aholisidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual va Xalq qabulxonalariga joriy yilning 6 oyi davomida o'tgan 2021 yilni shu davri (392 ta) ga nisbatan murojaatlar 58 taga yoki *14,8 % foizga* kam tushishiga erishildi.

Virtual va Xalq qabulxonalariga aksariyat Ziyat (59), Bog'bon (36), Valik (25), X.Olimjon (19), Do'stlik (16), Kokilon (16), Pakana (15), Guliston (13) va Qo'chqorchi (13) mahalla fuqarolar yig'inlari vakillaridan murojaatlar tushishi yuqoriligicha qolmoqda.

Shahar aholisini qiynab kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ijobiy hal etish orqali murojaatlar tushishini kamaytirish maqsadida viloyat hokimi raisligida o'tkazilgan hokimlik soatida bergan topshiriqqa asosan joriy yilning 13 iyun kundan viloyatda "Dolzarb 45 kunlik" e'lon qilindi. "Dolzarb 45 kunlik" doirasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, murojaatlarni qayta o'rganish va ijobiy hal etish darajasini ko'tarish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida murojaatlarni ijobiy xal etish ko'rsatgichi *33,7 foizdan 55,3 foizga ortishiga* erishildi.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish masalasida **94 ta**, Moddiy yordam ajratish masalasida **91 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **60ta**, Yo'llarni ta'mirlash **44 ta**, Qishloq xo'jaligi sohasida **39 ta**, Obodonlashtirish masalasida **28ta**, Uy-joylarni ta'mirlash masalasida **14 ta**, Kredit olish masalasida **8ta**, Ishga joylashtirish masalasida **7ta**, Ichimlik suvi masalasida **6 ta**, Daftarga (Temir, Ayollar, Yoshlar) kiritish masalasida **5 ta**, Xalq ta'limi masalasida **4 ta**, Raxbarlar faoliyati masalasida **4 ta**, Elektr ta'minoti masalasida **4 ta**, Oilaviy munosabatlar masalasida **2 ta**, Gaz tarmoqlari masalasida **2 ta**, Kontrakt to'lovi masalasida **1 ta**, boshqa masalalarda **35 ta** murojaatlar qayd etilgan.

Shahar hokimi tomonidan tasdiqlab berilgan chora-tadbirlar jadvaliga asosan shahar bo'lim va tashkilotlari rahbarlari tarkibidagi Ishchi guruhlar tomonidan Virtual qabulxona tomonidan yuborilgan va xuquqiy tushuntirish orqali nazoratdan chiqarilgan **144 ta** murojaatlarni qayta o'rganib chiqish natijasida, mazkur murojaatlarning **63,9 foizini** ijobiy yopish choralari ko'rildi.

Shuningdek, shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan qabullar jadvaliga asosan shahar hokimi hamda hokim o'rinbosarlari tomonidan sayyor va shaxsiy qabullar o'tkazib borilmoqda. Shuningdek, joriy yil 6 oyi davomida shahar hokimi va hokim o'rinbosarlari tomonidan jami 110 marotaba shaxsiy va ommay (sayyor) qabullar o'tkazilib, qabullar davomida jami 587 nafar fuqarolarning murojaatlari o'rganib chiqildi. Qayd etilgan murojaatlarning 336 tasi ijobiy hal etilgan bo'lib, ijobiy hal etish darajasi *57,2 foizni* tashkil etadi.

2022-07-20 12:37:52